

## UMUMTA'LIM MAKTABLARI MUSIQA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MUMTOZ MUSIQA NA'MUNALARIMIZ BILAN TANISHTIRISH

**Bannaqulov Mexroj Furqat o'g'li**

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti musiqa ta'lim kafedrası  
o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o'zbek mumtoz an'anaviy musiqasi va ijro yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari mumtoz musiqaning o'quvchi yoshlar ta'lim tarbiyasi ta'siri masalasi ham yoritilgan. Maqolada an'anaviy musiqamizning ijrochilik yo'llari va maqomlarning tarkibiy qismlari to'g'risida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** Mumtoz musiqa, ta'lim, kuy, ashula, usul, cholg'u asboblari.

### АННОТАЦИЯ

*В этой статье представлена информация об узбекской классической традиционной музыке и способах ее исполнения. Кроме того, освещается вопрос о влиянии классической музыки на воспитание учащейся молодежи. В статье рассматриваются исполнительские пути нашей традиционной музыки и составляющие статусов.*

**Ключевые слова:** классическая музыка, образование, мелодия, пение, метод, инструментовка.

### ANNOTATION

*This article covers Uzbek classical traditional music and performance tracks. In addition, the issue of the influence of classical music on the educational education of the student youth is also covered. The article will talk about the ways of performing our traditional music and the components of statuses.*

**Keywords:** classical music, education, singing, singing, method, instruments.

## KIRISH

Talablarda mumtoz musiqa bilan shashmaqom to'g'risidagi bilimlarni shakllantirishda shuni ham alohida ko'rsatib borish kerakki, kelgusida bu vazifa musiqa darslarida maqom kuylarini tinglatilganda mumtoz musiqa va shashmaqomdagi ya'ni kuy va qo'shiq yo'llaridagi doira usulari katta ahamiyatga ega.

Maqom va mumtoz kuy yo'llarining shakl olishiga doira usulari qanchalik katta o'rin tutishini shundan ham bilish mumkinki, cholg'u bo'limlarining kuy yo'llari va ko'pchilik shubalar hamda ularning shaxobchalari, ko'pincha doira usullari bilan nomlanib kelingan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Har bir maqomning cholg'u qismlari "tasnif", "tarje", "gardun", "muhammas", "aqil" kabi nomlar bilan ataladi.

Yuqori sinf o'quvchilariga dasturda mumtoz kuy haqida ma'lumot berish bilan birga ularni almashtirish ya'ni asarlarni boshqasiga og'ishtirish huquqi o'qtuvchiga berilgani yozilgan shunga muvofiq o'zi puxta ijro eta oladigan maqom kuy yoki ashulasiga doira cholg'usida yoki chapak yordamida usul chalib ko'rsatishi mumkin.

Maqom va mumtozlikka daxldor kuy va qo'shiqlarida sodda usullardan tortib moxir doirachilar ham hayajon bilan chaladigan murakkab usullar ham mavjuddir. Shuning uchun maktab o'quvchilariga ushbu "shashmaqom" deya ataluvchi buyuk merosimizni g'urur va samimiyat bilan o'zgacha ruhda dars davomida yetkazish o'qituvchida bosh maqsad bo'lishi lozimdir.

## NATIJALAR

Biz shuni ham aytmog'imiz, ayni muddaoki maqomda tasniflar, tarj'elar, mahammaslar, saqillar, oraz usullari, sarahbor usuli, talqinlar va talqinchalar usuli, nasrlar usuli, savtlar usuli, mo'g'ilchalar, qashqarchalar, soqiynomalar, uffor usullari mavjuddir.

Ularni o'quvchilarga aytish bilan birga o'z nota yo'lida yozib ko'rsatish ham mumkin.

Maqomlarning ashula bo'limlariga esa doira usullardan tashqari, she'r o'Ichovlariga ham jiddiy ahamiyat berish lozim. Ashula bo'limlariga kirgan shubalar "sarahbor", "talqin", "nasr", "savt", "mo'g'ilchalar" va turli maqomlarning o'ziga xos bo'lgan ba'zi ashula yo'llari ham kuy tuzilishi va doira usuli jihatdan ancha murakkabdir.

O'quvchilarini ashula matni bilan tanishtirish, uning mazmuni, mohiyati, tarbiyaviy ahamiyati bilan uyg'unlashgani anglatish, qadimdan g'azalnabist bobolarimizning ijodlari dilidagi dardu g'amlarini yoritish bilan birga she'riyatga bo'lgan shijoatni ham ko'rsatib beradi. Maqom kuylarining g'azallar bilan uyg'unlashib serjilo ma'no kasb etganligini o'quvchilar his qilmog'i uchun ularda turli g'azallar bilan aytilivchi oddiy qo'shiq yo'llarini o'rgatish mumkin.

Mumtoz musiqa bo'yicha yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan musiqa o'qituvchilarining o'quvchilari mumtoz musiqa haqida to'laqonli bilim, tushinchalarni hosil qilishda asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

O'quvchilarni mumtoz musiqaga bo'lgan munosabatlarni, qiziqishlarini o'rganish, o'quvchilarini mumtoz musiqani tinglash, o'rganishga bo'lgan ehtiyojlari darajasini qunt bilan o'rganish va baholash; o'quvchining yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari hamda musiqiy xotira, diqqat, eshituv, fikirlash xususiyatlari, shaxsiy imkoniyatlari (cholg'uda ijro etish, qo'shiq kuylash) va alohida iqtidorlari to'g'risidagi malumotlarga ega bo'lish;

O'quvchilarning umumiy hamda musiqa san'atiga, uning ayrim turlariga qiziqishiga, mustaqil bilim olishga extyoji, xalq musiqasiga bo'lgan munosabati, ovoz imkoniyatlari, talanti, qobilyati, bilim darajalari hamda ijro ko'nikmalariga muvofiq ular o'rganishi mumkin bo'lgan mumtoz namunalar repertuarini shakllantirish.

O'quvchilarning kuy-qo'shiqlari tinglash, uni idrok etish, namunalarni ijro etish ko'nikmalarini shakllantirishdan yordam beruvchi samarali ish usul, shall, vositalariga ega bo'lish o'quv mashg'ulotlarini pedagogik, psixologik, metodik jihatdan to'g'ri tashkil qila bilishi;

Dars jarayonida ko'rgazmali metodlardan, texnik vositalardan, zamonaviy va ilg'or pedagogik texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish.

O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan mumtoz musiqa san'atiga oid nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog'liq bilimlarni, shuningdek ularda shakllangan xalq musiqa me'rosiga qiziqish, yengil munosabat, mexr- muhabbatini obyektiv baxolab berish.

### **XULOSA**

Maktab "musiqa madaniyati" darslariga va o'quv dasturiga kiritilgan tinglash va o'rganish uchun tavsiya etilgan mumtoz musiqa namunalarini puxta meyoriy matn va musiqiy ohanglarni yod olinishi, shuningdek ularni mukammal ijrolari (taniqli hofizlar ijrosidagi, maqom ansambllari ijrolari va yozuvlari) bilan muntazam tanishtirib borish ularda albatta muayyan ko'nikmani hosil qiladi. Bu esa o'quvchilarning mumtoz maqom musiqa asarlaridan xabardorlik darajasini hamda o'quvchilarning musiqiy badiiy didi, madaniyatini belgilovchi asosiy shartlardan qilib belgilangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hamdamov H. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik madaniyati tarixi. T.: O'qituvchi, 1996yil. 174 bet.
2. Fitrat. O'zbek klassik muiqasi va uning tarixi. T.: Fan 1993yil. 56 bet.
3. Rajabov I. Maqomlar (nashrga tayyorlovchi va maxsus muharrir Oqilxon Ibrohimov). T.: Toshkent San'at nashriyoti 2006 yil.
4. Ibrhimov O. A. Maqomlar sematikasi. San'atshunoslik doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya, Toshkent, 1998yil. 257 bet.